

PAPER

## TOG‘AY MURODNING “YULDUZLAR MANGU YONADI” ASARIDA DIALEKTIZMLARNING QO‘LLANISHI

Ravshanova Madinabonu<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>University of Business and Science 2-bosqich talabasi

\*ravshanova@gmail.com

### Abstract

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida o‘z asarlarida shevaga oid birliklarning keng qo‘llanishi bilan ajralib turuvchi ijodkor Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asaridagi dialektizmlar haqida. Bu asarda muallif qarluq lahjasidagi so‘zlarni qo‘llab, o‘zbek tili leksikasining boy imkoniyatlari, fonetik va grammatik qurilishi turfa xilligini ko‘rsata olgan.

**Key words:** Sheva, dialektizm, fonetik dialektizm, leksik dialektizm, morfologik dialektizm.

### Kirish

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarning aks etishi dialektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham leksik dialektizm, fonetik dialektizm va morfologik hamda sintaktik stilistik dialektizm turlariga ega bo‘ladi [Ashirboyev, 2016:75].

Badiiy adabiyotda dialektizmlarning qo‘llanishi muallifning asariga o‘ziga xoslik, hayotiylik va mahalliy rang bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladi. Dialektizmlar – bu ma’lum bir hudud xos bo‘lgan so‘zlar, iboralar yoki grammatik shakllar, ya’ni shevalardir. Ularning badiiy asarlarda qo‘llanishi quyidagi jihatlar bilan izohlanishi mumkin:

1. Personajlarning ifodasini boyitish: dialektizmlar personajlarning maqomi, kelib chiqishi, yoshi yoki madaniy merosini ko‘rsatish uchun ishlatalidi. Bu orqali personajlar yanada hayotiy lashadi va ularning nutqi o‘ziga xos bo‘ladi.

2. Hududiy atmosferani yaratish: muallif asar o‘qish jarayonida o‘quvchini ma’lum bir hududga olib borish, u yerdagi hayotni, madaniyatni va muhitni tasvirlash uchun dialektizmlardan foy-dalanadi. Bu o‘quvchiga asarning muhitini yanada yaqinlashtiradi.

3. Realizmni oshirish: dialektizmlar asarning real hayotga yaqinligini ta‘minlaydi. Chunki real hayotda odamlar turli lahjalar va dialektlarda gaplashadilar. Bu badiiy asarning ishonchlilikini oshiradi.

4. Madaniy va tarixiy kontekstni ko‘rsatish: dialektizmlar orgali muallif asarning madaniy yoki tarixiy fonini ko‘rsatishi mumkin. Bu o‘quvchiga asarning davri yoki joyi haqida qo‘shimcha ma’lumot

beradi.

5. Badiiy uslubni boyitish: dialektizmlar muallifning uslubiga xoslik va rang-baranglik qo‘shadi. Bu asarning badiiy jihatdan boyishiga yordam beradi.

Misol tariqasida, o‘zbek adabiyotida o‘z asarlarida shevaga oid birliklarning keng qo‘llanishi bilan ajralib turuvchi ijodkor Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarida dialektizmlar alohida ahamiyatga ega. Bu asarda muallif qarluq lahjasidagi so‘zlarni qo‘llab, o‘zbek tili leksikasining boy imkoniyatlari, fonetik va grammatik qurilishi turfa xilligini ko‘rsata olgan.

**Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir.**

Toboq–toboq palov suzildi.

Toboq so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida tovoq.

**Tovoq.** Yuzi yoyiq, biroz yalpoq, kosa shaklidagi chuqurroq idish (turli o‘lchamda sopol, chinni, metal, ba’zan marmardan tayyorlanadi).

—Ma’qul, polvon bovaning suyaklari davrada qotgan! — dedi davra.

Bova so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida buva.

**Buva.** Gap ketayotgan, tilga olinayotgan shaxsning yoki katta, keksa ekanligini,unga xurmat, yaqinlikni ifodalaydi.

—Yur chayлага, — dedi Nasim.

—Yooq, ishim zaril.

Zaril sozi ozbek izohli lugatida zarur.

**Zarur.** Biror ish yoki ehtiyoj uchun kerak; kerakli darkor.

Brigadasida Suluv degich qiz bo‘ldi.

Degich fe’li o‘zbek izohli lug‘atida degan.

Degan so'zida de asos -gan fe'l qo'shimchasi.

**De.** Atalmoq, nomlanmoq; otga, nomga ega bolmoq; atamoq. – Polvon bova, nima bo'ldi? Tilovberdi, suv opke! – dedi.

Suv opke so'zi o'zbek izohli lug'atida suv olib kelmoq.

**Olmoq.** Yetakchi fe'l sifatida ot so'z turkumidagi so'zlar bilan birikib, qo'shma fe'l yasaydi.

**Leksik dialektizm shevaga oid so'zlarning badiiy asarlarda qo'llanishidir.**

Olish boshlandi de! Olish so'zi o'zbek izohli lug'atida kurash. Kurash. 1 Yiqitish g'olib chiqish uchun ikki kishi o'rtasidagi, ma'lum qoidaga asoslangan olishuv, o'zaro bellashuv. 2 Yiqitishga asoslangan bellashuvning umumiy nomi, sportning shunday turi. – Jayronxonadan qochgan, – deya kului. Jayronxona ozbek izohli lugatida jinnixona. Jinnixona. Aqldan ozgan, telbalar shifoxonasi. Borining onasi kadini chiqurchaga yaxshilab joylashtirib qoydi. Kadi ozbek izohli lugatida chelak. Chelak. Asosan suyuqliklarni saqlash, tashish uchun xizmat qiladigan, silindr shaklida. – Esa, xo'sh dengizlar! – dedi. – Bizni izzat qilib kelibsiz, sizlarni Xudo izzat qilsin! Xo'sh dengizlar o'zbek izohli lug'atida xush keldingiz. Xush keldingiz. Mehmon kelganda, hurmat yuzasidan aytildigan ibora. Tanacha ko'zini suzmasa, buchaqa ipini uzmaydi! Tana so'zi o'zbek izohli lug'atida g'unajin. G'unajin. Ikki yoshdan oshgan urg'ochi mol. Ikki oshnaning haminqadar qalinligini korgan ayroqchilar ularni ogri gumon qilib, podshoga chaqibdilar. Ayroqchilar ozbek izohli lugatida ayoqchi. Ayoqchi. Maxfiy agent, jousu. – Bo'ri, o'lay agar, hundisan, hundi! – dedi. – Ichimdagini top, deb bezrayib tura berasan! Bir Momoqiz uchun shuncham! Ana, qirto'la qiz! Hundi so'zi o'zbek izohli lug'atida kamgap inson.

Kamgap. Ko'p gapirishni yoqtirmaydigan, kam kam gapiradi-gan.

Obtovada odamlar qo'liga suv quyidi.

Obtova o'zbek izohli lug'atida choydish.

Choydish. Suv qo'yagigan metal idish.

Chollar uyqulari kela bermagach, cho'pchak aytdi, matal aytdi. Cho'pchak so'zi o'zbek izohli lug'atida ertak.

Ertak. Xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi poetik badiiy asar.

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qo'llanishidir.

Senga qiyogni do'riroq berishida gap bor, de.

Do'riroq so'zi o'zbek izohli lug'atida ko'proq.

Ko'p. 1 Son, miqdor jihatdan meyoridan nisbatan ortiq.

Ko'proq so'zida -roq qo'shimchasi sifatning qiyosiy darajasini ifodalagan.

Bundaychikin polvonni yana qaytib davrarga yonoshtirmaslik kerak!

Yonoshtirmaslik so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida yaqinlashtirmaslik. Yaqinlashtirmaslik so'zi yaqinlashtirmoq fe'lining bo'lishsizlik shaklida. Yaqinlashtirmoq so'zi yaqinlashmoq fe'lining orttirma nisbatida.

Yaqinlashmoq. Biror kimsa yoki narsa yaqiniga bormoq yoki kelmoq.

Devordan yo'talib-yo'talib bo'yladi. Qabatidagi brigadirdan:

–Kampirning oti nima edi? – deya so'radi.

Qabatidagi so'zini o'zbek izohli lug'atida yonidagi.

Yonidagi so'zida yon asos -i egalik qo'shimchasi va -dagi garashlilik qo'shimchasidir.

Yon. Umuman o'ng yoki chap tomon; taraf; atrof.

Jonivor, anovi ketayotgan eshaklini koryapsanmi?

Anovi sozi ozbek izohli lugatida ana u.

Ana. kors. olm. Koz ongida turgan, ozidan nariroqda bolgan narsani yoki yuz berayotgan voqe-a-hodisani korsatishda ishlati-ladi.

Ana u. Yuqorida aytigan zikr qildirilgan.

–Chiniminan (rostdan) yiqildimmi-a, chiniminanmi-a... – dedi.

Chiniminan ozbek izohli lugatida rostdanmi?

Rostdan sozida asos rost.

Rost. Haqqoniy, ishonchli, togri, haqiqat.

Enam somonxonaga moyak yashirib qo'yibdi.

Ena so'zi o'zbek izohli lug'atida ona.

Ona. Farzandni yoki farzandlari bo'lgan xotin (o'z tuqqan farzandlariga nisbatan); bolali xotin.

Bakovul Denov kattalariga qarab iljaydi.

–Bo'lganlaringiz shumi, okun? – dedi.

Okun so'zi o'zbek izohli lug'atida aka.

Aka. O'zidan katta er kishiga murojaatda yoki unga xurmat yuzasidan ishlataladi (bunda yakka holda yoki nutq qaratilgan shaxsni bildiruvchi so'z bilan qo'llaniladi).

–Egachim elakli bo'ldi, elagi tilakli bo'ldi! – dedi.

Egachi so'zi o'zbek izohli lug'atida opa.

Opa. O'zidan katta, ba'zan kichik ayollarga xurmat yuzasidan ishlataladi.

–Chin, uyda edi. Boyagina do'xtirga boraman deb ketdi.

Do'xtir o'zbek izohli lug'atida shifokor.

Shifokor. 1 Umuman, kasallikdan xalos qiluvchi; davolovchi.

2 Tibbiyot instituti bitirgan va davolash-profilaktika hamda sanitariya-epidemiologiya muassasalarida ishlash huquqiga ega bo'lgan mutaxassis; vrach, doktor .

## Adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Darslik. – Toshkent: Navro'z, 2016. B. 139.
2. Murod Tog'ay. Yulduzlar mangu yonadi. Qissa. – Toshkent: Ziyo nashr, 2020. – 112b.
3. Begmatov E, Madaliyev A, Mahkamov N, Mirzayev T, Umarov E, Hojiyev A, To'xtaliyev N, Xudoyberganov D. O'zbek tilining izohli lug'ati. Lug'at. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 1981.